

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA URUSHNING IJTIMOY - FALSAFIY TALQINI

Bo'tayeva Oygul Mamarasul qizi

Adabiyotshunoslik o'zbek adabiyoti fakulteti 1 - kurs magistranti

Termiz shahar 6 - umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Maqolada O'tkinchi Hoshimov ijodida urush mavzusining ijtimoiy va falsafiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda muallif asarlarida urush nafaqat jang maydonidagi hodisa, balki shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy jarayon sifatida qanday aks etishi o'rganildi. Shuningdek, urushning inson ruhiyatiga, jamiyat tuzilishiga va axloqiy qadriyatlarga ta'siri falsafiy nuqtai nazardan muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari Hoshimov ijodida urush motivlarining ijtimoiy-falsafiy o'rni va o'zbek adabiyotidagi ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *O'tkinchi Hoshimov, urush, ijtimoiy talqin, falsafiy talqin, shaxsiy kurash, ijtimoiy oqibatlar, ma'naviy qadriyatlar, o'zbek adabiyoti.*

KIRISH

O'tkinchi Hoshimov (1940–2010) zamonaviy o'zbek adabiyotida urush mavzusini ijtimoiy va falsafiy nuqtai nazardan yoritgan noyob yozuvchilardan biri sifatida tanilgan. Uning asarlarida urush faqat jang maydonidagi harbiy voqealar sifatida emas, balki inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va madaniyat kontekstida talqin qilinadi. Shu jihatdan Hoshimovning ijodi urushning insoniyatga, jamiyatga va individga ta'sirini chuqur falsafiy tahlil qilish imkonini beradi.

Urush mavzusi Hoshimov asarlarida ko'pincha ijtimoiy adolatsizlik, inson huquqlari buzilishi va insoniy qadriyatlarning sinovi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif urushni insoniyat tarixidagi murakkab fenomen sifatida yoritadi, uning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini o'quvchiga his qilish imkonini beradi. Shu sababli uning asarlarida urushning ijtimoiy-falsafiy talqini o'ziga xos metodologik yondashuv bilan amalga oshiriladi. Xususan, sho'ro adabiyoti, o'zbek adabiyotida urush mavzusiga taalluqli bo'lgan asarlar soni salmoqligina. Faqat ular biroz bir-biridan faqr qiladi. Sho'ro adabiyotida yaratilgan bir qator asarlarda urush har bir insonni toblaydigan va qahramonlikka undovchi tushuncha deb baho berilgan. Insonlarni jasorat ko'rsatishlari uchun urush bo'lishi kerak qabilidagi fikr ilgari surilgan. Ammo urush tabiatida bu ilgari surilgan g'oyaga nisbattan yot tushunchalar insonlarni umri davomida iskanjaga solib, qo'rquv va mashum xotiralar bilan hayot kechirishlarini talab etadi. Albatta, urush insonning jism va qalblarini so'zsiz jarohatlab kelajak avlod uchun ham o'z izini, belgisni qoldiradi. Sho'ro adabiyotidagi qarash mutloqo noto'g'ri. Chunki bu mislsiz ofat bir makon va zamonda bo'lib o'tsa ham insoniyat tarixi va inson qalbida o'chmas iz, og'ir tosh bo'lib qoldi. O'. Hoshimov so'zi bilan aytganda "...Urush esa o'yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma yetti millioni bizning odamimiz edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchining joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirimdagi odamlarni ham sinovdan o'tkazdi."1 Urush insonlar uchun juda katta sinovli

yillar bo'ldi. Urush davri ijtimoiy muhitida insonlar bilan birga fazilat va illat, savob va gunoh yonma-yon turdi. Urushda insonparvarlik ham, jasorat va fidoiylik bo'lishi ham tabiiy. Lek bu umuminsoniy fazilatlarining aksi xiyonat, qo'rqoqlik va hudbinlik illatlari natijasida adolat, rahm-shavqat tushunchalari xira tortdi. Sinovli yillarni badiiy adabiyot olamiga olib kirgan bir necha yozuvchilar orasida O'.Hoshimov ijodini o'rganish, anglash va targ'ib etish o'rinli hol.

XX asrning 60-yillariga kelib jamiyatda, ijtimoiy muhitda, yangilanishga kuchli ehtiyoj sezildi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Qanday yangilanishni jamiyat kutmoqda edi? Turg'unlik va uning oqibatlarini fosh qiluvchi bir qator asosli dalillarni yuzaga chiqarish edi. Bu yangilanish har bir soha qatori badiiy adabiyotda ham o'z aksini ko'rsatdi. Xususan, she'riyat va nasrda qisqa vaqt mobaynida muayyan voqelikni badiiy tadqiq etishning yangi tamoyillari paydo bo'la boshladi. Demak, badiiy adabiyotda bir vaqtning o'zida hukrmon kuchlarning zulmkorligi xoh u yaqin masofada, xoh u yiroqda bo'lsin ularning millat fojeasi uchun qo'shayotgan hissalarini yuzga chiqarish bo'ldi. O'zbek adabiyotida hayotga tanqidiy munosabat, kuchli yondashuv ijodiy-badiiy an'anaga aylandi. E'tiborlisi shuki, tanqidiy munosabatlarga kuchli yondashuv va asosli dalillar bilan o'zbek adabiyotga kirib kelgan ijodkorlar salmoqligi bo'ldi. Bu holat ayniqsa adabiyotga yangi kirib kelayotgan navqiron avlodning peshqadam vakillari ijodida sezilarli darajada uzatildi. Ularning biri o'tkir qalam sohibi, mahoratli yozuvchi O'tkir Hoshimov edi.

O'tkir Hoshimov buyuk adib, o'nlab roman va qissalar, ta'sirchan hikoyalar va hayotiy dramalar muallifidir. U hamisha o'z asarlari uchun real hayotda uchragan insonlarning qiyofasidan o'z davrining badiiy qahramonini yaratgan. Shuning uchun ham adibning roman, qissa va hikoyalarida o'quvchi o'zi uchun tanish bo'lgan qiyofalarni uchratishi yoki shu davr insonlari kechmishini bilgan yoinki eshitgan bo'lishi tabiiy. Lekin bu bilishlari yetarlicha bo'lmay faqatgina uni asarlari davomida to'lig'icha o'zlashtirib bilib boraveradi. Shu paytda qadar yozuvchining yetmishdan ortiq kitoblari nashr etildi. Uning "Qalbinga quloq sol" (1973), "Nur borki, soya bor" (1977), "Ikki eshik orasi" (1986), "Tushda kechgan umrlar", "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" (2008), "Dunyoning ishlari" kabi asarlari nashr etilib, ko'plarning diqqat markazida bo'ldi. Asarlari kitobxonlar bilan birga taniqli adiblarning ham e'tiborini tortdi. Buning sababini har bir kitobxon va adabiyotshunos olim turlicha izohlashi mumkin. Kimlardir adib uslubi, tilining tabiiyligida desa, yana kimlardir asarning samimiyligi va ravonligida deb baho beradi. Bu baholanishning hammasi ham to'g'ri, lek eng asosiysi ijodkor o'z asarlarida inson mohiyatini, uning ruhiyatini oshkora kuylaydi, yozadi. O'tkir Hoshimovning har bir asari kompozitsiyaning orginalligi bilan ajralib turadi. Xoh u ijtimoiy turmush tarzi, xoh u siyosiy-ijtimoiy muhit, urush mavzusida bo'lsin hamma-hammasida chinakam inson obrazi gavdalanadi. Albatta, ularda jamiyat ijtimoiy hayoti har bir muammo va yutuqlarning sababchi hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday davrdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat ijodkorlarning g'oyaviy-badiiy maqsadiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu jihatdan har bir ijodkorning ma'lum talab va mezonlar asosida yozilgan, milliy manfaatlarimizga xizmat qiluvchi badiiy asari davr mahsuli hisoblandi. Davr ijtimoiy muammolari tahlili O'tkir Hoshimov ijodida yetmishinchi yillariga kelib badiiy

asar sifatida dunyoga kela boshladi. Adib barcha asralarida, xususan, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Nur borki, soya bor” romanlarida insonning jamiyatga ta’sirini emas, balki jamiyatning inson turmush tarziga bosimini ijod markaziga olib chiqdi. Umuminsoniy munosabatlar mushtarakligi, birligi, optimistik kayfiyat belgilari O’tkir Hoshimovning barcha asarlarida kitobxonni o’ziga tortuvchi mayoq bo’la oldi. Uning ijod mahsullaridagi o’ziga xoslik o’quvchini asarni to’liq holicha o’qib chiqishini talab etadi. Negaki, ko’plab kitobxonlar orasida o’tkazilgan so’rovnomalar, savol-javoblar vaqtida muallif asarlarini to’lig’icha o’qibgina qalb xotirjamligiga erishganligi aytiladi. Albatta, bu bejiz emas. Chunki asarlarida keltirilgan voqealar tizimi uzoq o’tmish emas, balki yaqin tariximiz bilan bo’g’ligi hammani qiziqtiradi va yana qiziqishlari ortishiga sabab bo’ldi. Natijada esa omma uning asarlarini nashrdan chiqishini kutdi va qo’llama-qo’l bo’lib o’qidi.

O’tkir Hoshimovning asarlariga xos muhim xususiyatlaridan biri u voqelikni nozik estetik idrok, keng tafakkur bilan yoritib beradi. Muallif badiiyatida ijtimoiy mohiyat milliy xarakter, estetik ideal birligida, uyg’unligida in’kosini topadi. Xususan, yozuvchining “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor”, “Tushda kechgan umrlar” kabi romanlarida insonlarning ruhiy holati, davr bilan munosabatlari ijtimoiy hayot hamda davr tabiati vositasida oydinlashadi. Romanlarida davrning turli xil muammo va illatlariga xolis baho beradi. Uning tub ildizni ochishga harakat qiladi. Urush va uning salbiy oqibatlarini insoniyat boshiga moddiy jihatdan qanchalik talofat yetkazsa, xalq ongida ham shunchalik, balki undan ham ortiq mahdudlik hosil qilishi ma’lumdir. Qahramon hayollarida parondakalikni keltirib chiqaradi. Bu holat odamzodning o’z mohiyatidan uzoqlashishiga olib keladi.

O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani va “Urushning so’ngi qurboni” hikoyasida sinovli yillarning mashaqqatini, inson qalb kechinmalari yangicha ruhda adabiyotimizga olib kirdi. Yozuvchi ijodida shunday asarlar bo’ladiki, uni yozish jarayoni boshqalarga qaraganda juda og’ir kechadi. Buning sabablarini turlicha izohlash mumkin. Masalan, yozilajak asar uchun material to’plash, qahramonlarni to’g’ri tanlay olish, asarni boshlab olish, muammo qo’yish va uning yechimini topa bilish va hakoza. Tajribali, malakali ijodkorlar ham biron-bir asarni yaratishda huddi shunday qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romani qiynalgan kitobi bo’ldi. Chunki O’tkir Hoshimov bu asarini yozishda urush mavzusida avval yaratilgan asarlarga va o’z ijodida yaratilgan asarlarga qaraganda boshqacha ruhda, o’zgacha usulda bo’lishiga intildi. Asar uchun tanlangan mavzu va muammo keng ko’lamda zalvorli bo’lib, unda urush - mislsiz ofat odamlar boshiga qancha mashaqqat, kulfatlar solishi mumkinligini yangicha ruhda badiiy aks ettirishni oldiga maqsad qildi va natijaga ham erishdi. Sirdan qaraganda, urush mavzusiga oid hamma gaplar aytib bo’ligandek tuyilsa-da O’.Hoshimov bu ko’hna muammoga yangicha yondashish yo’llarini izladi. Mahoratli yozuvchi urushga baho bera ekan avvalo uni qoraladi, uning aksilinsoniy mohiyatini ochadi va inson qadri, hayotini achchiq haqiqatlar bilan kelajakka qoldirdi. “Ikkinchi jahon urushida, ayniqsa, urushning dastlabki oylarida minglab, o’ng minglab odamlar zambarak o’qiga yem bo’lgani bor gap! Umrida qo’liga ketmondan boshqa qurol olmagan osiyolik dehqonlarni yog’och “miltiq” bilan “qurollantirib”, nemis tankiga qarshi borishga majbur qilishgani, bir qadam

orqaga chekinganlar esa otib tashlangani ham bor gap! Shunday ekan, urush inson qadrini toptashi, odam hayotining bir chaqalik qimmatini qolmasligi ham achchiq haqiqat.”² Shu bilan birga ijodkor urush yillaridagi oddiy insonlarning vatanparvarligi, bardoshi va sabr-qanoatini madh qildi. “O’tkir Hoshimov o’zi tasvirlayotgan muhitni ham, odamlarni ham yaxshi biladi – shuning uchun tasvirda balandparvozlikka berilmaydi. Uning uslubi tabiiyligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Romanning kompozitsiyasi ham original. U yetti qismdan iborat, bu qismlar qirq yetti bobdan tashkil topgan. Bu boblar esa qahramonlarning tilidan hikoya qilishda to’qqizta personaj ishtirok etadi. Bunday tasvir usuli ancha qiyin, voqealar tarqalib ketishi, ular orasida uzilish yuz berishi hech gap emas. Lekin muallif asarining oxirigacha “kalavaning uchini qo’ldan chiqarmaydi”. Natijada romanda muayyan ichki yaxlitlik paydo bo’ladi. Muallif urush yillaridagi o’zbek qishlog’ini tasvirlar ekan, undagi qiyinchiliklarni xaspo’shtlamay tilga oladi.”

O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” romanida millat turmush tarzini uch tarixiy o’lchamda kecha, bugun va ertada gavlantiradi. Romanda urush va front orti chiziqlari orasida mushtaraklik natijasida ikki tasvir bir-birini to’ldirgan. Vaholanki, o’zbek xalqi uchun front orqasidagi mashaqqatli mehnat sinov bosqichi hisoblansa, urushdagi iroda va matonat ikkinchi imtihon davridir. Urush hech kimga mehr-shavqat qilmaydi. To’qqiz qahramon tilidan hikoya qilingan voqea va ichki kechinlar natijasida muallif bilan birga kitobxon ham ularni ayblashga biroz shoshmaydi. Ba’zan muallif qatori kitobxon ham qahramonlarning holatiga achinadi. Chunki asar tasviri, g’oyasi, yuki va musiqiyiligi kitobxonni huddi urush maydoni yoki front orti hayotiga yetaklaydi. O’zini qahramonlar yonida, ular bilan birga yelkama-yelka turgandek his qiladi. Asarni o’qir ekansiz, yanada shu davr hayotiga yaqin borib qolganingizni sezmaydiz.

“Ikki eshik orasi” – yirik ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy roman. Asar uzoq davr voqealarini emas, balki yaqin o’tmish oqibatlari haqida so’zlaydi. Unda ko’plab kishilar taqdiri, xilma-xil ijtimoiy-axloqiy muammolarni o’z ichiga qamrab olgan. Roman voqealarining bir uchi XX asrning 30-yillari boshlariga, qishloqdagi kolxozlashtirish davri voqealariga borib tutashsa, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Romanning markazida esa fashizmga qarshi kurash, urush yillaridagi o’zbek qishlog’i hayoti, urushning insonlar taqdiriga ko’rsatgan ta’siri yotadi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida afg’on voqealari, 30-yillar qatag’oni, millat genetikasi kabi masalalarning badiiy talqini san’at darajasiga ko’tarilgan. Yozuvchining “Tushda kechgan umrlar” romanida yaqin tarix, ya’ni, XX asrning 80-yillarida yurtimizda sodir bo’lgan voqea-hodisalar haqida so’z yuritiladi. Ayni paytda, asar ma’lum bir burilishlarga, xususan, 1950-yillarning qatag’on davri bilan bog’liq voqealariga ham duch kelamiz. Yanada aniqroq qilib aytsak, romanda o’zbek xalqining fojealari uch nuqtada birlashtirilgan. Bular:

- 1) 1930-yillar qatag’on voqealari;
- 2) 1980-yillardagi mash’um afg’on urushining dahshatli lavhalari;
- 3) xalqimiz boshiga musibat keltirgan “o’zbek ishi” fojeasi.

Demak, badiiy asarda fojealar uchligidan hosil bo'lgan ijtimoiy g'oyalar aks ettirilgan. Asarning tub ildizi urushdan oldingi qatag'on yillaridan boshlanadi. Tarix sarlavhalarida mashum xotiralar bilan saqlanib qolgan voqealarning o'zbek xalqi tarixi va qalbidagi og'ir jarohatining uchligini tasvirlaydi. Ijodkor ahli ham so'z ustasi ham rassom. Shunday ekan so'z kuchi bilan kitobxonni asar voqealar olamiga olib kirsam, rassom kabi turli xil ranglarda voqealarni ko'z oldida gavdalantiradi. Roman XX asrning 30-yillari va 80-yillarning ikkinchi yarmida o'zbek xalqining achchiq hayotiga boy voqealar rassom mo'yqalamida qizil bo'yoq bo'lib chizildi.

“Afg'on urushi” insoniyatga ham ruhiy, ham jasmoniy ta'sir ko'rsatgani ushbu asar qahramoni Rustam misolida barcha shu davr o'zbek yigitlari ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi ushbu romanda badiiy tasvirdan juda ustalik bilan foydalanadi. Oddiy voqealarni ortiqcha bortirishlarsiz namoyon qiladi. “Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand hazonlar ingraydi... Erta bahordan bo'tana bo'lib shosha-pisha, qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoe ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, hazon ko'milib yotadi... yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi.”⁴ Iqtibosdan shu ma'lumki, yozuvchi o'z ijtimoiy konsepsiyasini ramziy obrazlarga sindirgan. Kuz – bu urush ortidagi oddiy xalq hayoti. Kuz – bu Rustamni hayoti. O'tkir Hoshimovning uslubiga xos va mos belgilardan yana biri uning tabiat tasvirini asar voqealari ruhiyatiga badiiy san'at darajasiga singdira olishdir.

O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanidagi Komissar obrazi millat fojeasiga sababchi bo'lgan shaxslar sifatida asar maydoniga olib kirdi. Yozuvchi Komissar qiyofasini xronotopik bir necha bosqichlarida tasvirlaydi: urushdan oldingi, urush davr, tiklanish davri, mustaqillik arafasi. Turli xil vaqt oralig'idagi qahramonning xarakterli belgilari mukammal ko'rinishga ko'tariladi. Yozuvchi ifoda yo'li orqali bir tomomdan odamzod fe'l-atvorining barqarorligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan davr muhitining, tarixiy shart-sharoitning kishi ruhiyatini boshqarishini ta'kidlaydi. Qurbonoy xolaning yoshligini hikoya qilib berishi, bu voqealar aslida, Komissarning naqadar zulmkor ekanini bildirish uchun yoritilgan. Lekin bu voqealar 80-yillarning ruhini ochib berish uchun xizmat qiladi. O'tkir Hoshimovning istedodi uning tarix bilan davrni bog'lay olishida ham ko'rinadi.

Romanda Komissar nutqida bir gap bor: “Men o'lmayman! Xex!”. Qanchadan qancha fojealarga sabab bo'lgan, o'z manfaati uchun hech narsadan tap tortmaydigan Komissar Soat G'aniyevich millatni (shu jumladan millatdoshlarni) zimdan yemiruvchi tuzum “faxriysi”. U hayot ekan, zulm, mash'um fojealar davom etaveradi. U yo'q bo'lmas ekan, millatni mahv etish, uni yo'q qilishning dahshatli yo'llarini o'ylab topaveradi. Demak, u qancha uzoq umr ko'rsa, millat fojeasi ham shuncha bardavom bo'laveradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytish kerakki, O'tkir Hoshimov o'z romanlarida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg'unlikning mohiyatini ochish asosida davrning muhim masalalarini ko'tarib chiqdi. “Ikki eshik orasi” romanida qariyb qirq yillik davr qamrab olinib, bir qator chigal, murakkab taqdirlar misolida o'zbek xalqining tarixiy qismati mahorat bilan tasvirlangan

bo'lsa, "Tushda kechgan umrlar" romani esa turg'unlik davri illatlarini fosh etuvchi XX asr o'zbek romanlarining eng sara namunasi sifatida milliy adabiyot taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi.- T.: Meriyus, 2016.
2. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. -T.: Yangi asr avlodi. 2018. 3-bet.
3. Sharafiddinov O. Sardaftar sahifalari. T.: Yosh gavradiya.1999.
4. Sharafiddinov O., Hoshimov O', Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
5. Duysenboyev O. O'tkir Hoshimov asarlarida xarakter drammatizmi -T.: Til va adabiyot ta'limi, 2007.
6. Umurov H. Qahramon ma'naviy olami va epiklik. -T.: Fan, 1995.